# OLAMNING MILLIY-LISONIY MANZARASIDA MAKON KONSEPTI

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i06.032

M.Ergashova
Qo‘qonDU

**Annotatsiya:** Maqolada lokallik belgisi tilning turli sathlarida o’ziga xos tarzda namoyon bo’lishi, bu jihatdan quyi sath (fonologik sath) birliklari bilan yuqori sath (morfemik sath va boshqalar) birliklarida mavjud bo’lgan lokallik bir-biridan ma’lum darajada farqlanishi haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** lokallik belgisi, makon konasepti, morfemik sath, zidlanish, differentsiatsiya, fakultativ fonema, fonemaning fakultativ variantlari

# THE CONCEPT OF SPACE IN THE NATIONAL-LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD

M.Ergashova
KokandSU

**Abstract:** The article expresses the idea that the locality is manifested in its own way at different levels of the language, and in this regard, the locality present in the lower level (phonological level) units and the higher level (morphemic level and others) units differ from each other to a certain extent.

**Keywords:** sign of locality, concept of space, morphemic level, contrast, differentiation, facultative phoneme, facultative variants of phoneme

Jahon tilshunosligi bugungi kunga kelib boshqa yondosh fanlar bilan ta’sirlashuvi natijasida til va jamiyat, til va ong, til va madaniyat, til va mentalitet orasidagi aloqalarni tahlil qilishga asosiy e’tiborini qaratmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda grammatik kategoriyalar atroflicha o‘rganildi, izchil va uzviy holatda tartiblashtirib borildi. Zamonaviy tilshunoslik fani zimmasidagi dolzarb masalalardan biri turli lisoniy birliklar ma’nolarini, shu jumladan, taqlidiy so‘zlarni boshqa tillar doirasida qiyosiy aspektda o‘rganishdan iborat.

Fanlar o‘z rivoji tarixida bir necha bosqichdan o‘tgan. Aksar hollarda tabiiy, gumanitar, hatto aniq fanlar ham tarixiy rivojlanishda bir-biriga ta’sir qilib, parallel harakatlanadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Muqaddam grammatik kategoriyalarni tartiblash, so‘z turkumlari va gap qurilishi tadqiqi kabi masalalar kun tartibida bo‘lgan sof tilshunoslik fani ham bugungi kunga kelib boshqa yondosh fanlar ta’sirida va ularga


(cc) BY

ta’sir ko‘rsatgan holda til va ong, til va jamiyat, til va madaniyat, til va mentalitet orasidagi aloqalarni tahlil qilishga asosiy e’tiborini qaratmoqda. Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslik til hodisalarini antropotsentrik yondashuvlarga asoslangan holda o‘rgana boshladi. N.Mahmudov tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday ob’ektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz jumlasini tilga oladilar. V.A.Maslova ta’kidlaganidek, “inson aqlini, insonning o‘zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi”. Unda olamning milliy tasviri (manzarasi, kartinasi, surati) asosiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Falsafa fani negizida “dunyoning tasviri” tushunchasi shakllanib, tez orada ushbu tushuncha ilmiy, ijtimoiy, madaniy va turli boshqa jabhalarni qamrab ola boshladi. “Falsafada olam tasvirini aniqlash bilish jarayonini idrok etish, voqelikni farqlash hamda ilmiy bilish jarayoni bilan bog‘liq, shuning uchun olimlar borliq tasviri bilan olamning ilmiy kartinasini aynanlashtiradilar”[1. 6507]. “Olamning lisoniy manzarasi” istilohi zamonaviy tilshunoslikning eng yirik yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kognitiv lingvistikaga oid tadqiqotlarda, ayniqsa, o‘ta faol. O‘z-o‘zidan, mazkur atama tarkibidagi “lisoniy” sifatlovchisi olamning yana boshqa tasvirlari ham mavjud ekanligiga ishora qiladi. Darhaqiqat, turli sohalardagi zamonaviy tadqiqotlar olamning falsafiy, mifologik, diniy va ilmiy tasvirlari kabi masalalar tahliliga asoslanadi. Ushbu manzaralar orasidagi tafovutni tushunish esa olamning lisoniy manzarasi, uning tarkibiy qismlari, vazifa va maqsadlarini yanada to‘laqonli anglashga yo‘l ochadi. Jumladan, olamning falsafiy tasviri borliqni inson va olam munosabatlari negizida anglashga intiladi. Ushbu munosabatlar ontologik, kognitiv, qadriyatlar va amaliy faoliyat kabi tushunchalar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, ya’ni dunyo aqliy faoliyat, tushuncha, g‘oya, so‘zlar vositasida anglashiladi[. Olamning mifologik manzarasi esa dunyodagi barcha narsalar jonli, ularning har biri o‘z ruhiga ega degan qarash asosida shakllangan. Ushbu tasvir yirik olam bir necha kichik olamlardan iborat, ularda zamon va makon turli xil, biroq ulardagi barcha mavjudotlar yagona Taqdiri azal - borliq qonuniyatiga bo‘ysunadi, degan aqidani ilgari suradi. Bunda miflar qahramoni bo‘lgan turli xudolar ham mutlaq kuchga ega emas, ular ham taqdiri azalga tobe deya ishoniladi. Olamning diniy tasviri esa har narsaning ibtidosi va intihosi bor, bunda ibtido Alloh dunyoni yaratgan on hisoblansa, vaqti kelib borliqning oxiri kelishi, intiho bo‘lishi haqidagi qarashlar yetakchilik qiladi. Olamning diniy manzarasida insonning mavjudligi mohiyati Allohning irodasini bajarishdadir, deyiladi. O‘z navbatida, turli


(cc) BY

farqlarga koʻra ushbu manzaralar nasroniy, islomiy, buddaviy va boshqa diniy tasvirlarga ham boʻlinishi mumkin.

Dunyoning ilmiy manzarasi esa yuqoridagi tasvirlardan farqli ravishda zamon va makonda moddiy vujudlar mavjud, ushbu vujudlar atom deya nomlanuvchi zarralardan iborat, vujudlar oʻtkinchi, atomlar esa boqiy degan qarashlarga asoslanadi. Har qanday hodisa oʻz sababiga ega, inson hayotiy maqsadlari, tabiat va tarixning hech qanday ahamiyati yoʻq - bularning bari abadiy qonuniyatlar doirasida mavjud, ularga amal qilgan holda harakatlanadi. Ya'ni olamning ilmiy tasviri boshqalaridan farqli ravishda mavhum tushunchalarga emas, balki moddiy unsurlarga asoslanadi.

Yuqorida keltirilgan olam tasvirlari haqida umumiy tasavvur hosil qilar ekanmiz, oʻz-oʻzidan, ushbu manzaralar va olamning lisoniy manzarasi orasidagi sezilarli tafovutni anglash mumkin. Avvalo, olamning lisoniy manzarasi(OLM) hech qanday gʻoya asosida shakllanmagan, bunga sabab til vositalarining moʻtadil ekanligi deyish mumkin. Ya'ni soʻz turli gʻoya va fikrlarni birdek ifodalashga xizmat qila oladi. Zero, "olamning lisoniy manzarasi - borliq haqidagi bilimlarning til vositasida aks ettirilishi, shuningdek, yangi bilimlarni egallash va ularni ifodalash vositasi". "Olamning lisoniy manzarasi - bu, barcha lisoniy imkoniyatlarning majmuasi, U ma'lum bir oʻziga xos madaniyat ruhi, til egalaridan iborat jamiyatning mentaliteti, til imkoniyatlari va vazifalarini koʻrsatib beradi; olamning lisoniy manzarasi etnos va tilning tarixiy taraqqiyot jarayonini koʻrsatib beradi va, ayni vaqtda, tilning kelajakdagi holati haqida ilmiy bashorat beradi; olamning lisoniy manzarasi tildagi eng sodda jarayonlardan boshlab tilning oʻziga xos xarakterida namoyon boʻluvchi murakkab jihatlarini qamrab oladi, hech bir lingvistik jarayon undan chetda qolmaydi; olamning lisoniy manzarasi tarixiy taraqqiyot davomida oʻzgarishlarga uchraydi; olamning lisoniy manzarasi lingvistik hodisa boʻlish bilan bir qatorda, ayni vaqtda madaniy hodisa ham hisoblanadi; olamning lisoniy manzarasi bir avlod vakili tomonidan yaratiladi, ikkinchi avlod vakili tomonidan boyitiladi, avloddan avlodga meros sifatida oʻtadi; olamning lisoniy manzarasi umummadaniy hodisa, ya'ni barcha xalqlar taraqqiyotning turli bosqichlarida bu jarayonni turlicha bosib oʻtadilar". Olamning lisoniy manzarasi, badiiy tasviri har bir tilda oʻziga xos va serqirra boʻlib, bu borliqqa milliy nazar, har bir tilning oʻziga xos fonetik sistemasi hamda milliy artikulyatsiya xususiyatlari bilan bogʻliqdir. Shuningdek, olam lisoniy manzarasining oʻziga xos ishlangan va sayqallashtirilgan, eng mukammal koʻrinishi boʻlgan badiiy tasvir qiymati nafaqat syujetining izchilligi, balki bevosita milliy tasviriy vositalarining qay darajada tanlanganligi, oʻzaro uygʻunligi bilan ham belgilanadi.

Har bir til uchun oʻzaro koʻp ham farqlanmaydigan jihatlar bilan birga, tillarning oʻziga xos xususiyatlari yaqqol koʻzga tashlanib turadigan, sof milliy lisoniy tabiatga ega boʻlgan jihatlar ham borki, u tilning mohiyatini, tillar olamidagi oʻziga xosliklarni ta'minlaydigan hodisalar hisoblanadi.


(cc) BY

Ushbu fikrdan anglashiladiki, olamning lisoniy manzarasi o‘z mohiyatiga ko‘ra boshqa tasvirlardan quyidagi jihatlariga ko‘ra ajralib turadi:

*birinchidan*, olamning lisoniy manzarasi amaliy samarador, ya’ni tasvir vositalari bo‘lgan so‘zlar kishining his-tuyg‘ulari, bilimi, diniy va dunyoviy qarashlarini ifodalab, nutqni shakllantirishga xizmat qiladi;

*ikkinchidan*, olamning lisoniy manzarasi diniy, mifologik, falsafiy va ilmiy tasvirlar orasida bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi, zero, ushbu sathlarga oid qarashlar, g‘oya va fikrlar bevosita til orqali ifodalanadi. Lisoniy tasvir vositalari har qanday boshqa tasvirlarni nutqda ifodalash uchun birdek qo‘llanadi. Ayni paytda, ilmiy tasvirga oid tushunchalar yoki diniy, mifologik tasvir vositalari qo‘llanish doirasi faqat “o‘z o‘qi” atrofida cheklangan;

*uchinchidan*, ma’lumki, voqea-hodisalar, predmet va obrazlar turli millatlar ongida turlicha shakllanadi va mentalitetlar orasidagi tafovutlar lisoniy vositalar negizida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu sababdan olamning lisoniy manzarasi o‘z vositalari bo‘lmish so‘zlar orqali o‘zining farqlovchilik vazifasini ham bajaradi[2,17].

Olamning lisoniy manzarasi umumiy, milliy va xususiy turlarga bo‘linadi. Olamning umumiy lisoniy manzarasi va milliy tasviridagi farqli jihatlar esa bugungi kunda tilshunoslikning kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatshunoslik kabi nisbatan yangi yo‘nalishlarida olib borilayotgan turli tadqiqotlar uchun markaziy masala bo‘lib qolmoqda. G.Gachyovning fikriga ko‘ra, “olamning milliy obrazi o‘z tarkibida milliy makon, turmush tarzi, til, milliy ruh, milliy mentalitet, borliqni anglashning milliy usuli, borliq haqidagi milliy tushunchalar, qadriyatlar tizimi kabi sathlarni qamrab oladi. Har bir davr o‘ziga xos milliy qiyofani yaratadi”. Ushbu kategoriyalar asosida shakllanib, uzluksiz rivojlanib borayotgan milliy tillar esa olamni turli bo‘yoqlarda, betakror tarzda tasvirlashi tabiiy hol - zero, “til o‘z ma’nolari tizimi va ushbu tizimlar birikuvi orqali olamning konseptual modelini milliy va madaniy rang-baranglik orqali boyitadi”[2, 5].

Tilshunoslar olamning lisoniy manzarasi va konseptosfera ayni bir voqelikning turlicha nomlanishi degan fikrni bildirishadi. Demak, konseptosferaning tarkibiy qismi hisoblangan konseptlar - olam lisoniy manzarasining ham asosiy vositasi. Endi olamning lisoniy manzarasida taqlidlar qanday o‘ringa ega, degan muammo yechimiga o‘tar ekanmiz, buning uchun taqlidiy so‘zlarning kelib chiqishi, semantik vazifasi va mohiyati masalalariga to‘xtalish lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Litkin O.I. Tipi kartin mira v reprezentatsii konsepta // http: //journal. pushkin. institute/ archive/ archive/ 2010/4_(221)/6507

2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2012. №. 5. - B. 6-7.


(cc) BY

5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1995. -232 б.

3. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. -Тошкент, “Фан”, 2013.

4. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тошкент: Университет, 2007.


(cc) BY